

## BOSHLANG'ICH SINFLARDA "TARBIYA" FANINI O'QITISHNING ZAMONAVIY USULLARIDAN FOYDALANISH

*L.Mamadaliyeva*

*Kosonsoy tuman 1-son kasb hunar maktabi*

*Tarbiya fani o'qituvchisi*

**Annotasiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda tarbiya fanini o'qitishda o''qituvchilarning darslarda pedagogik texnologiya, boshlang'ich sinflarda interfaol metodlar va ta'limiylar o'yinlardan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, ijodiy izlanish va mantiqiy fikrlash doiralarini kengaytirish bilan birga ularni darslarda o'rganganlarini hayot bilan bog'lashga, qiziqishlarini oshirishga yordam beradigan fikrlar bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** Tarbiya, texnikaviy, axborotli, audiovizualli faol fuqarolik pozitsiyasi, mas'uliyat, majburiyat, huquqiy ong va madaniyat, Inter-faol, texnologiyalar.

### KIRISH

Hozirgi kunda ta'lif jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topish, mustaqil o'rganish va fikrlash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxs rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Bugungi kunda ta'limda «Aqliy hujum», «Fikrlar hujumi», «Tarmoqlar» metodi, «Sinkveyn», «BBB», «Beshinchisi ortiqcha», «6x6x6», «Bahs-munozara», «Rolli o'yin», FSMU, «Kichik guruhlarda ishslash», «Yumaloqlangan qor», «Zigzag», «Oxirgi so'zni men aytay» kabi zamonaviy texnologiyalar qo'llanmoqda.[2,3].

Ta'lif-tarbiya jarayonini ilg'or vositalari, metodlar, texnik vositalar, usullariga tayanib takomillashtirish tizimi hisoblanadi. Bu tizim o'qituvchi tomonidan yaratiladi, ta'lif-tarbiya bosqichlarini o'zaro bog'lashga xizmat qiladi. Uning mzmuni va vazifalarini, maqsadini oldindan belgilash, ta'lif-tarbiyaning shakllari va vositalarini tayyorlash, o'quvchida shakllantirish ko'zda tutilgan ma'naviy sifatlarni o'zlshtirishga yo'naltirilgan darslarni rejalashtirish kabilarni o'z ichiga oladi. Bugungi kunda fan-teknikaning rivojlanishi bilan inson faoliyati nihoyatda kengayib, yangi texnologiyalar

kirib kelmoqda. Sifat o'zgarishlari shundan dalolat beradiki, endilikda yangi metodikalarni talab etadigan va ta'limgarayonining ajralmas qismiga aylanib borayotgan, unga o'zining ma'lum xususiyatlarini joriy etadigan yangi texnikaviy, axborotli, audiovizualli, vositalar ham mavjud bo'lib, ular zamonaviy pedagogik texnologiyalarni aniq voqelikka aylantirdi[5].

Ta'limgarayonining unumdarligini oshiradi, o'quvchilarni mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o'quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam o'zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantiradi. An'anaviy o'qitish tizimi, aytish mumkinki, yozma va o'g'zaki so'zlarga tayanib ish ko'rishi tufayli axborotli o'qitish sifatida tafsiflanadi, chunki o'qituvchi faoliyatini birligina o'quv jarayonining tashkilotchisi sifatida emas, balki nufuzli bilimlar manbaiga aylanib borayotganligini ta'kidlagan holda baxolanmoqda[6].

**Xulosa:** Boshlang'ich sinflarda interfaol metodlar va ta'limiylar o'yinlardan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, ijodiy izlanish va mantiqiy fikrlash doiralarini kengaytirish bilan birga ularni darslarda o'rganganlarini hayot bilan bog'lashga, qiziqishlarini oshirishga yordam beradi. O'qituvchilarning bunday zamonaviy talablar asosida yaratilgan sharoitlardan samarali foydalanib, darslarni ilg'or pedagogik hamda axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida tashkil etilishi ta'limgarayonini sifatini kafolatlaydi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti "Ta'limgarayonining muassasalarini faoliyatini takomillashtirish" masalasi bo'yicha qarori.
2. S.K.Mangal: "General Psychology" 2013y. 19 b.
3. Nishanova, Zamira Taskarayevna. Psixiologik maslahat: o 'q u v qo'llanma. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o 'rta maxsus ta'limgarayonining vazirligi. – T.: «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2010. – N 4 toplam
4. To'rt temperament :sanguine,flegmatik,xolerik va melanxolik shaxs turlari. 2017 y. - N 1 toplam.221 b.
5. Sulaymonov, J. B. (2021). IBN XALDUNNING „MUQADDIMA “ASARIDA JAMIYAT TARAQQIYOTIGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR TALQINI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(4), 732-737.
6. Sulaymonov, J. B. (2021). ABU ZAYD ABDURAHMON IBN XALDUNNING „MUQADDIMA “ASARIDA DAVLAT TUSHUNCHASIGA YONDASHUVLAR TALQINI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(6), 9-14